

“O‘zkimyosanoat” aksiyadorlik jamiyati
yagona aksiyadorining
13/13-8 - son qarori

2023-yil 26-iyul

Toshkent shahri Shayxontohur tumani
Navoiy ko‘chasi, 38-uy

KUN TARTIBI:

1. “O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadori tomonidan qo‘shimcha chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirishda imtiyozli olish huquqdan foydalanmaslik to‘g‘risida.
2. “O‘zkimyosanoat” AJning qo‘shimcha aksiyalarini chiqarish orqali ustav kapitalini oshirish to‘g‘risida.
3. “O‘zkimyosanoat” AJning aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorini tasdiqlash to‘g‘risida.

Kun tartibidagi masala yuzasidan qaror qabul qilindi:

1. “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan qo‘shimcha aksiyalarni chiqarish va joylashtirish orqali jamiyat ustav kapitalida uchinchi shaxs – O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi ulushi shakllantirilishi hamda jamiyat aksiyadorlari tarkibiga kirishi ma’qullansin.

2. “O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadori – O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi tomonidan qo‘shimcha chiqarilayotgan aksiyalarni joylashtirishda imtiyozli huquq qo‘llanmasin.

3. “O‘zkimyosanoat” AJning nominal qiymati 1 145 so‘mdan bo‘lgan 1 671 293 147 dona umumiy qiymati 1 913 630 653 315 so‘mlik egasi yozilgan oddiy qo‘shimcha aksiyalar chiqarilsin.

Aksiyalar yopiq obuna usulida O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasiga joylashtirilsin.

Aksiyalarni joylashtirish qo‘shimcha aksiyalar chiqarish to‘g‘risidagi qaror qimmatli qog‘ozlar bozorini tartibga soluvchi vakolatli davlat organi tomonidan davlat ro‘yxatiga olingan kundan boshlab 30 kun ichida amalga oshirilsin.

Aksiyalar qimmatli qog‘ozlarning birjadan tashqari uyushmagan bozorida to‘g‘ridan-to‘g‘ri bitimlar tuzish va Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysida ro‘yxatdan o‘tkazish yo‘li bilan qonun hujjatlariga muvofiq joylashtirilsin.

Ushbu chiqarilishdagi aksiyalar 1 145 so‘mdan joylashtirilsin.

Aksiyalar uchun to‘lovlar mazkur qarorning 1-ilovasida qayd etilgan jami 1 913 630 654 412,11 so‘mlik “Dehqonobod kaliy zavodi” AJga ajratilgan O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining kreditlari bo‘yicha 2023-yil 15-iyul holatiga “Dehqonobod kaliy zavodi” AJning asosiy qarzi va unga hisoblangan foiz hamda penyalar hisobidan Jamiyat buxgalterlik balansida tegishli o‘tkazmalar orqali amalga oshiriladi. Bunda 1 097,11 so‘m miqdoridagi qoldiq mablag‘ “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasining hisob-raqamiga o‘tkazib berilsin.

Mazkur chiqarilish amalga oshmagan deb topilgan taqdirda, ushbu chiqarilishdagi aksiyalar to‘loviga yo‘naltirilgan mablag‘lar qonunchilikda belgilangan tartibda aksiyalar chiqarilishi amalga oshmagan deb topilgan kundan boshlab, 10 kun ichida qaytariladi.

4. “O‘zkimyosanoat” AJning qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

5. “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan “Dehqonobod kaliy zavodi” AJ hamda Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi bilan 2019-yil 6-dekabrda 3-son hamda 36-son kredit shartnomalariga 2023-yil 15-iyul holatiga jami 165 067 912,11 AQSH dollari miqdordagi kreditlar bo‘yicha barcha mavjud qarzlarni tan olish majburiyatini olish hamda Jamiyat aksiyalariga obuna bo‘lish to‘g‘risidagi shartnoma imzolagandan so‘ng 60 kun ichida jamiyat

qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorida belgilangan tartibda aksiyalarini joylashtirish bilan bog‘liq shartnoma tuzish bo‘yicha qo‘shimcha kelishuvni imzolash ma‘qullansin.

6. “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi bilan Jamiyatning 2-ilovaga muvofiq tasdiqlangan qo‘shimcha aksiyalar chiqarilishi to‘g‘risidagi qarori bo‘yicha chiqarilayotgan aksiyalarga obuna bo‘lish to‘g‘risidagi shartnomani o‘rnatilgan tartibda rasmiylashtirishga ruxsat berilsin.

7. Jamiyat boshqaruvi raisi v.b. (Muxamedjanov)ga o‘rnatilgan tartibda:

- mazkur qarorda nazarda tutilgan kredit shartnomalariga qo‘shimcha kelishuvni imzolash;

- jamiyat aksiyalarga obuna bo‘lish to‘g‘risidagi shartnomani rasmiylashtirish;

- aksiyalar qo‘shimcha chiqarilishi to‘g‘risidagi qarorni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazish;

- jamiyat aksiyalarini joylashtirish to‘g‘risidagi shartnomani tuzish vazifalari topshirilsin.

8. Mazkur qaror ijrosini nazorat qilish O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik islohotlar agentligi bosh direktorining birinchi o‘rinbosari A. Abduqodirov zimmasiga yuklansin.

Qaror rasmiylashtirilgan sana: 26.07.2023-yil